XALQ DEPUTATLARI TERMIZ SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 22-avgust VI-79-116-8-121-K/24 Termiz shahar

Termiz shahrida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish holatini o‘rganish natijalari to‘g‘risida

Huquqni tasdiqlovchi hujjatlari to‘liq bo‘lmagan, hujjatdagi va amaldagi maydoni bir-biridan farq qiladigan yerlar va ushbu yerlardan foydalanish holati xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining Ishchi guruhi tomonidan o‘rganildi.

O‘rganish natijasida:

20 ta holatda, 1097,30 gektar qishloq xo‘jaligi foydalaniladigan yer maydonlari tuman hokimining qaroriga asosan doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan yer uchastkalarini ijara huquqiga almashtirish lozimligi aniqlangan.

9 ta yerdan foydalanuvchilarning 173,50 gektar yer uchastkalarida huquqiy hujjatdagi yer maydoni bilan amaldagi yer maydoni o‘rtasida 73,10 gektar tafovut mavjudligi, ushbu yer uchastkalarida huquqni tasdiqlovchi hujjat to‘liq emasligi;

100,4 gektar yer uchastkalaridan oqilona foydalanilyotganligi aniqlangan.

O‘rganish yakunlaridan kelib chiqib, Ishchi guruh tomonidan:

samarali foydalanib kelinayotgan 100,4 gektar yer uchastkalari bo‘yicha Termiz shahar hokimi va yerdan foydalanuvchi o‘rtasida ijara shartnomasini tuzish (ijara shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish) taklif etilgan.

Ishchi guruh tomonidan tayyorlangan takliflarni muhokama qilib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6- va 10-moddalari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining va Oliy Majlis Senati Kengashining 2023-yil 13-dekabrdagi 3787-IV/KQ-642-IV-sonli Qo‘shma qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF–15-son Farmonining 5-bandiga asosan, xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Huquqni tasdiqlovchi hujjatlari to‘liq bo‘lmagan, hujjatdagi va amaldagi maydoni bir-biridan farq qiladigan yerlar va ushbu yerlardan foydalanish holatini

o‘rganish bo‘yicha xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining Ishchi guruhi rahbari B.Abrayevning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruhning quyidagi takliflari ma’qullansin:

100,4 gektar yer uchastkalari bo‘yicha Termiz shahar hokimi va yerdan foydalanuvchi o‘rtasida ijara shartnomasini tuzish (ijara shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish).

3. Termiz shahar hokimligi qonunchilikda belgilangan tartibga qat’iy rioya etgan holda:

1-ilovaga muvofiq 12,0 gektar yer, Termiz shahrida huquqni tasdiqlovchi hujjatlari to‘liq bo‘lmagan, hujjatdagi va amaldagi maydoni bir-biridan farq qiladigan, doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan, shu sabablarga ko‘ra huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan holda amalda foydalanib kelinayotgan boshqa qishloq xo‘jalik korxonalarining yer maydonlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida qaydnomasi bo‘yicha ijara shartnomasi o‘zgartirilayotgan yerdan foydalanuvchilar;

2-ilovaga muvofiq 88,4 gektar yer, Termiz shahrida huquqni tasdiqlovchi hujjatlari to‘liq bo‘lmagan, hujjatdagi va amaldagi maydoni bir-biridan farq qiladigan, doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan, shu sabablarga ko‘ra huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan holda amalda foydalanib kelinayotgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan fermer xo‘jaliklarining yer maydonlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘grisida qaydnomasi bo‘yicha shahar hokimi va yerdan foydalanuvchilar o‘rtasida ijara shartnomasini tuzish (ijara shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish) tasdiqlansin.

4. Kadastr agentligi Termiz shahar bo‘limi (A.Buzurkov) va Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati Termiz shahar filiali rahbari (M.Meliyev) ushbu qarorning 1- va 2-ilovalariga asosan ijara shartnomasi tuziladigan (qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritiladigan) hamda yer uchastkalari bo‘yicha kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish choralarini ko‘rsin.

5. Termiz shahar hokimining birinchi o‘rinbosari(Sh.Dusmuratov) bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ishlarining o‘rnatilgan tartibda mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishini ta’minlasin.

6. Termiz shahar Qishloq xo‘jaligi shu’basi (X.Xolbayev):

uch kun muddatda yer maydonlari davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi belgilanganligi to‘g‘risida 2-ilovadagi yerdan foydalanuvchilar (fermer hamda boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari rahbarlari)ni xabardor qilsin;

mazkur Qarorning ijrosini ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida **har oy yakuni bo‘yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar** xalq deputatlari shahar Kengashiga axborot kiritib borsin.

7. Ushbu Qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha oimiy komissiyasi (B.Abrayev) zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi, Kengash raisi o‘rinbosari



NORMURADOVA DILBAR ABDIKOSIMOVNA

Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining
2024-yil 22-avgustdagi
VI-79-116-8-121-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Termiz shahrida huquqni tasdiqlovchi hujjatlari to‘liq bo‘lmagan, hujjatdagi va amaldagi maydoni bir-biridan farq qiladigan, doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan, shu sabablarga ko‘ra huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan holda amalda foydalanib kelinayotgan boshqa qishloq xo‘jalik korxonalarining yer maydonlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida qaydnomasi

T/r	Fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari nomi	Massiv nomi	Dala kontur raqami	Umumiy yer maydoni (ga)	Jami ekin yer maydoni, ga	Shundan		Ko‘p yillik daraxtzorlar	Shundan				Bo‘z yerlar	Pichanzorlar	Yaylov,ga	Jami qishloq xo‘jaligi yer turlari	Boshqa yerlar
						suvli er maydoni,ga	lalmi		bog’zor	uzumzor	tutzor	boshqa mevali					
1	“AGRO MAHSULOT YETISHTIRISH VA SAQLASH” MCHJ	“Tinchlik” (sobiq Surxon Namuna SFUY) massivi “Tinchlik” mahallasi	196, 208q	10,0	9,3	9,3										9,3	0,7

2	“AGRO-TRADE-TERMIZ” MCHJ	“Tinchlik” (sobiq Surxon Namuna SFUY) massivi “Tinchlik” mahallasi	186q	1,8457	1,70909	1,70909										1,7	0,136607
3	BABAMURADOV ABDURAZAK ISHMURADOVICH			0,10	0,07	0,07										0,1	0,03
4	“TURON BANK” ATB			0,0843	0,050907	0,050907										0,050907	0,033393
	Jami			**12,0**	**11,1**	**11,1**										**11,1**	**0,9**

Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining
2024-yil 22-avgustdagi
VI-79-116-8-121-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Termiz shahrida huquqni tasdiqlovchi hujjatlari to‘liq bo‘lmagan, hujjatdagi va amaldagi maydoni bir-biridan farq qiladigan, doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan, shu sabablarga ko‘ra huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan holda amalda foydalanib kelinayotgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan fermer xo‘jaliklarining yer maydonlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to`grisida qaydnomasi

T/R	Fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari nomi	massiv nomi	dala kontur raqami	Umumiy yer maydoni (ga)	Jami ekin er maydoni, ga	Shundan		Ko‘p yillik daraxtzorlar	Shundan				bo‘z erlar	pichanzorlar	yaylov,ga	Jami qishloq xo‘jaligi yer turlari	boshqa erlar
						suvli er maydoni,ga	lalmi		bog’zor	uzumzor	tutzor	boshqa mevali					
1	“ISMOILJON NAMUNA” fermer xo‘jaligi	“Tinchlik” (sobiq Surxon Namuna SUY) massivi “Tinchlik” mahallasi	542, 549	8,40	8,0	8,0										8,0	0,40

2	“BUYUK SURXON TERMIZ” fermer xo‘jaligi	“Tinchlik” (sobiq Surxon Namuna SUY) massivi “Tinchlik” mahallasi	208q, 219, 220, 274, 275	22,40	20,4	20,4										20,4	2,00
3	"ZAMIN NAMUNA TERMIZ" fermer xo‘jaligi	“Tinchlik” (sobiq Surxon Namuna SUY) massivi “A.Navoiy” mahallasi	461, 469, 499, 474, 476, 509	21,20	17,85	17,85		1,75	1,35		0,40					19,60	1,60
4	"MUHAMMADJON YANGI ASL MEVALARI" fermer xo‘jaligi	“Tinchlik” (sobiq Surxon Namuna SUY) massivi “A.Navoiy” mahallasi	503q	2,50	0,60	0,60		1,85	1,85							2,45	0,05
5	"MANGUZAR MEVALARI" fermer xo‘jaligi	“Manguzar” (sobiq Surxon Do‘stlik sarxadi) “Manguzar” mahallasi	200 (204)	3,80	3,70	3,70										3,70	0,10
6	"SAIDMUROD OLTIN DALA" fermer xo‘jaligi	“Manguzar” (sobiq Surxon Do‘stlik sarxadi) “Pattakesar” mahallasi	43, 46, 50, 52, 54, 56, 63q	27,80	27,5	27,5										27,5	0,3

7	"QIZLAROY-DO‘STLIK" fermer xo‘jaligi	“Manguzar” (sobiq Surxon Do‘stlik sarxadi) “Chegara” mahallasi	186q	2,3	2,3	2,3									2,3		
Jami				**88,4**	**80,4**	**80,4**		**3,6**	**3,2**		**0,4**				**84,0**	**4,5**	